

MUSIQA TA'LIMI ORQALI BO'LAJAK TRABIYACHILARNING  
ESTETIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA  
TA'LIMIY O'YINLARNING O'RNI

**Raxmonov Ulug'bek Karimovich**

*Farg'onan davlat universiteti Sirtqi bo'limi ijtimoiy-gumanitar  
fanlar kafedrasi dotsenti  
O'rta maxsus kasb-hunar ta'lim a'lochisi  
Tel. +998 90 160 79 00*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola Musiqa ta'lifi orqali bo'lajak trabiychilarning estetik kompetentligini rivojlantirishda musiqa ta'lifi o'yinlarning o'rni, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda musiqa ta'lifi o'yinlarni qo'llash ularning estetik qarashlarini kengaytirish, musiqiy ta'limni interaktiv va qiziqarli qilish imkonini yaratish hamda bu usullar orqali tarbiyachilar nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, bolalar bilan ishslashda estetik ta'limni tashkil etishda yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirishi haqida ilmiy yondashilgan.

**Kalit so'zlar.** Bo'lajak, tarbiyachi, tayyorlash, jarayon, musiqiy, ta'lifi, o'yinlar, foydalanish, estetik, kompetentlik, samarali, usullar, biri, ta'minlash.

**Аннотация.** В данной статье научно обосновано значение музыкально-образовательных игр в процессе развития эстетической компетентности будущих воспитателей через музыкальное образование. Раскрыта роль музыкально-образовательных игр в подготовке будущих воспитателей, их значение в расширении эстетических взглядов, создании интерактивной и увлекательной образовательной среды. Также подчеркивается, что посредством этих методов будущие воспитатели не только приобретают музыкальные знания и навыки, но и осваивают новые педагогические подходы в организации эстетического воспитания при работе с детьми.

**Ключевые слова:** будущий, воспитатель, подготовка, процесс, музыкальный, образовательный, игры, использование, эстетический, компетентность, эффективные, методы, одно из, обеспечение.

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the role of music-based educational games in developing the aesthetic competence of future preschool educators through music education. It highlights the application of such games in the training of future educators, emphasizing their importance in broadening aesthetic perspectives, making music education more interactive and engaging. It also notes that through these methods, future educators not only acquire musical knowledge and skills but also adopt new pedagogical approaches for organizing aesthetic education when working with children.

**Keywords:** future, educator, training, process, musical, educational, games, usage, aesthetic, competence, effective, methods, one of, provision.

### Kirish

Zamonaviy mактабгача та'lim tizimida estetik tarbiyaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida musiqa ta'limi alohida o'rин tutadi. Musiqa bolalarda nafaqat musiqiy ko'nikmalarни shakllantirish, balki ularning estetik hissiyotini, badiiy tasavvurini va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida musiqiy ta'limiy o'yinlardan foydalanish ularning estetik kompetentligini oshirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Musiqa ta'limiy o'yinlar bolalarning qiziqishini uyg'otish, musiqiy va ritmik bilimlarni o'rgatish hamda ularning jismoniy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, o'yinlar orqali tarbiyachilar bolalarning diqqatini jalb etish, ularning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish va estetik didini shakllantirish imkoniga ega bo'ladi.

Maqolaning asosiy maqsadi - musiqa ta'limiy o'yinlarning bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash va ularning samaradorligini yoritishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun musiqiy ta'limiy o'yinlarining pedagogik ahamiyati, ularning mazmuni va turlari hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llash uslublari tahlil qilindi. Ushbu ishda musiqiy ta'limiy o'yinlar orqali bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini oshirish usullari va metodlari tadqiq etiladi, shuningdek, ularning kasbiy faoliyatga tayyorgarligidagi o'rni yoritiladi.

Musiqa ta'lim jarayonida ta'limiy o'yinlar - bolalarning jismoniy va ma'naviy faolligini uyg'otish, ularni rag'batlantirish va musiqiy ko'nikmalarini o'rgatishning samarali usuli sifatida qaraladi. Muhim jihat shundaki, o'yinlar nafaqat bolalarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi, balki ularni turli musiqiy elementlar bilan tanishtirish, ritmni his qilish va musiqiy faollikka jalb etishni osonlashtiradi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Musiqa o'yinlar esa nafaqat shunday o'rganish jarayonining bir qismi, balki estetik va emotsiyal rivojlanishni ta'minlaydigan vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlashda musiqa ta'limiy o'yinlarni qo'llash ularning estetik qarashlarini kengaytirish, musiqiy ta'limni interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi. Bu usullar orqali tarbiyachilar nafaqat musiqiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi, balki bolalar bilan ishslashda estetik ta'limni tashkil etishda yangi pedagogik yondashuvlarni ham o'zlashtiradi.

Shuningdek, musiqa ta'limiy o'yinlar tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ular orqali pedagoglar pedagogik jarayonda

innovatsion usullarni qo'llashga, bolalarning ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvni shakllantirishga o'rganadilar. Bu esa maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va bolalarning estetik dunyoqarashini boyitishda muhim qadam bo'ladi. Musiqa ta'limiy o'yinlar orqali estetik kompetentlikni shakllantirish maktabgacha ta'limda nafaqat bolalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitadi, balki bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida ham mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Musiqa ta'limi orqali estetik kompetentlikni rivojlantirish masalasi nafaqat bilim berish jarayoni emas, balki insonning shaxsiy va ma'naviy o'sishiga xizmat qiladigan muhim pedagogik jarayondir. Musiqa asarlarini tushunish, baholash va ular orqali histuyg'ularni izhor qilish tarbiyachilarda estetik tafakkurning mukammallashuvini ta'minlaydi. Bu nuqtada A.Qurbanov va Sh..Axmedov kabi mualliflar musiqa ta'limida estetik kompetentlik shakllanishining tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar.

O'yin - bolalar va kattalarda bilish va his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng tabiiy va samarali usullardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar L.S.Vygotskiyning ta'lim nazariyasiga asosan, o'yin insonning bilish jarayonida asosiy o'rinni o'ynaydi, deb ta'kidlaydilar L.S.Vygotskiy. Musiqa o'yinlari orqali tarbiyachilar musiqa elementlarini tajribaviy ravishda o'zlashtirib, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, musiqa o'yinlari interaktiv ta'lim usullari sifatida talabalarning diqqatini jalb qilishda muhim o'rinni o'ynaydi. Bu usul orqali o'quv jarayoni qiziqarli va ta'sirchan bo'lib, talabalarda ijodiy fikrlash hamda emotsiional izhorlar mustahkamlanadi.

Musiqa o'yinlari nafaqat estetik bilimlarni oshirish, balki tarbiyachilarning ijtimoiy va emotsiional ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Jamoaviy o'yinlar orqali ular bir-biri bilan hamkorlik qiladi, muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi va musiqa orqali his-tuyg'ularni baham ko'rishni o'rganadilar. Bu jihatlar kelajakda pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Musiqa o'yinlarini ta'lim jarayoniga muntazam kiritish va ularning mazmunan talabalarning estetik kompetentligini oshirishga moslashtirilishi tavsiya etiladi. Pedagoglar uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etilib, musiqa o'yinlarini samarali qo'llash bo'yicha malaka oshirish ishlari olib borilishi kerak. Shuningdek, musiqa o'yinlari uchun pedagogik dasturlar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish ahamiyatga ega.

Musiqa ta'limiy o'yinlar bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini shakllantirish va mustahkamlashda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Estetik kompetentlik - bu shaxsning musiqa va boshqa san'at namunalariga nisbatan histuyg'u, estetik baholash va emotsiional javob kayfiyatidir. Musiqiy o'yinlari orqali tarbiyachilar nafaqat musiqa elementlarini, ya'ni ritm, temp, melodiya va boshqalar

aniq va samarali o'rganadilar, balki musiqa asarlarining ma'naviy-estetik mazmunini his qilish va boshqalarga yetkazish qobiliyatini ham rivojlantiradilar.

Shuningdek, musiqa o'yinlari interaktiv ta'lim usullari sifatida tarbiyachilarda ijodiy fikrlash, emotsional izhor qilish va jamoaviy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jihatlar pedagogning estetik va ma'naviy salohiyatini mustahkamlab, uning bolalarni tarbiyalashdagi pedagogik mahoratini oshiradi.

Musiqa ta'limiy o'yinlar bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishda nafaqat bilimlarni, balki ijodiy, emotsional va ijtimoiy salohiyatlarni oshirishga xizmat qiladigan asosiy va samarali pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu tariqa, ularni professional va ma'naviy jihatdan mukammal pedagoglar etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

**MUSIQA TA'LIMIY O'YINLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI – BU BOLA VA KATTALARNING BILISH, HIS QILISH VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI USUL HISOBLANADI. MUTAXASSISLAR TA'KIDLASHICHA, O'YIN INSONNING TABIIY O'RGANISH VA JAMIYATGA MOSLASHISH VOSITASI. MUSIQA TA'LIMIY O'YINLAR SHU KONSEPSIYAGA ASOSLANIB, MUSIQA BILIMLARINI O'YIN SHAKLIDA O'ZLASHTIRISH IMKONINI BERADI.**

Musiqa ta'limiy o'yinlar orqali bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligi rivojlanadi, bu esa ularning pedagogik faoliyatining samaradorligini oshiradi. Musiqa o'yinlari nafaqat bilim berish, balki ijodiy va emotsional ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli musiqa ta'limiy o'yinlarni ta'lim tizimida keng joriy etish va ularning metodologiyasini takomillashtirish zarur.

### Natija

**Musiqa ta'limiy o'yinlar estetik kompetentlikni rivojlantirishda muhim vosita ekanligi tasdiqlandi.** O'yin usuli orqali bo'lajak tarbiyachilar musiqa elementlarini, xususan ritm, temp, melodiya va dinamikani samarali o'zlashtira olishadi. Bu ularning musiqaga bo'lgan his-tuyg'ulari va estetik qarashlarini mustahkamlaydi. Musiqa o'yinlari tarbiyachilarning diqqatini jalb qilib, musiqa asarlarini tinglash va ularni tushunish qobiliyatini oshiradi. Bu jarayonda ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini va emotsional sezgirligi ham rivojlanadi. Bu esa ularning bolalar bilan ishslashda estetik tarbiya berish qobiliyatini yaxshilaydi va musiqa ta'limida yuqori pedagogik natijalarga erishish imkonini beradi. **Ta'lim jarayonida musiqa o'yinlarini qo'llash pedagoglarga interaktiv va samarali usullarni joriy qilishga yordam beradi.** Bu usullar orqali ta'lim jarayoni qiziqarli va ta'sirchan bo'lib, o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishi va zavqi ortadi.

### Muhokama

Maqola natijalari shuni ko'rsatdiki, musiqa ta'limiy o'yinlar bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini shakllantirishda samarali va muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu natija adabiyotlarda keltirilgan nazariy qarashlar bilan muvofiqdir, ular musiqa o'yinlari ta'lim jarayonida talabalarning musiqaga bo'lgan his-tuyg'ulari va estetik tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni alohidadir. Musiqa o'yinlari tarbiyachilarning ritm va melodik elementlarni o'zlashtirishini yengillashtiradi, shu bilan birga ularda ijodiy yondashuv va emotsiyal izhor imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa ularning estetik sezgirligini mustahkamlashga xizmat qiladi, ya'ni musiqa ta'limida nafaqat texnik bilimlar, balki estetik va emotsiyal tafakkur ham muhim ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, musiqa ta'limiy o'yinlar pedagogikada interaktiv ta'lim usullarining samaradorligini oshiradi. Bu usullar orqali tarbiyachilarning faollik darjasini diqqati oshadi, ularning musiqaga bo'lgan qiziqishlari kuchayadi. Bu jamoaviy o'yinlarda talabalarning ijtimoiy ko'nikmalari ham rivojlanishiga yordam beradi, bu esa tarbiyachilarning keljakdagi pedagogik faoliyati uchun muhimdir. Shuni aytish kerakki, musiqa ta'limiy o'yinlar bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini rivojlantirishda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ijodiy va emotsiyal salohiyatlarni ham oshirishga xizmat qiladi. Bu esa musiqa ta'lim jarayonini samarali va ma'naviy boy qilish imkonini beradi.

### XULOSA

Musiqa ta'limiy o'yinlar bo'lajak tarbiyachilarning estetik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda muhim va samarali pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin usuli orqali tarbiyachilar musiqaga nisbatan emotsiyal munosabatini kuchaytirib, ritm, temp, tonallik kabi musiqa elementlarini chuqurroq va yorqinroq o'zlashtiradilar. Musiqa o'yinlari tarbiyachilarning estetik tafakkurini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi, bu esa ularning bolalarda estetik va musiqiy qarashlarini tarbiyalashda faol o'rin o'ynaydi. Shuningdek, o'yinlar pedagogikada interaktiv ta'lim usullarini qo'llash orqali ta'lim jarayonini qiziqarli va ta'sirchan qiladi. Shu bilan birga, estetik kompetentlikni baholashdagi murakkabliklar va uning sub'ektiv xususiyatlari kelgusida tadqiqotlarni chuqurlashtirish va baholash mezonlarini takomillashtirishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, musiqa ta'limiy o'yinlar orqali estetik kompetentlikni rivojlantirish bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik malakasini oshirishda samarali yo'l bo'lib, ularni muvaffaqiyatli va ma'naviy boy pedagoglarga aylantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Axmedov. Musiqiy ta'lif va estetik tarbiya. - Toshkent: 2019 yil. Ma'naviyat nashriyoti.
2. A.Qurbonov. Musiqiy pedagogika: nazariya va amaliyat. - Samarqand, 2018 yil. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. F.To'xtamurodov. Interaktiv usullar va musiqa ta'lifimida o'yinning o'rni. - Toshkent: 2021 yil. Pedagogika jurnali, №4.
4. N.Karimova. Pedagogik musiqa o'yinlari va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. - Toshkent: 2022 yil. Fan va ta'lif, №2.
5. J.Eshmurodov. Estetik kompetentlikni baholash metodologiyasi. - Toshkent: 2020 yil. Ilmiy ishlar to'plami, №3.
6. L.S.Выготский. О развитии высших психических функций. - Москва: 1978 yil. Pedagogika.